

## AMALIY SAN'ATNING INSON TURMUSHIDAGI TA'SIRI HAMDA GIRIH NAQSHLARINING ME'MORIY OBIDALARDAGI O'RNI VA ILMIY AHAMIYATI



**Lobar Sherbayevna Shukurova**

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik  
va dizayn instituti (DSc) doktoranti

Email: [lobar.shukurova.87@mail.ru](mailto:lobar.shukurova.87@mail.ru)

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-14>

**Annotatsiya:** Yozma manbalarga ko'ra, O'zbekiston hududida amaliy bezak san'ati qadim-qadimdan vujudga kelgan xalq san'atining eng ajoyib tarkibiy qismlaridan biridir. U o'zining rivojlanishida ko'p yillar va asrlarni bosib o'tgan, goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan. Musulmon allomalar, mutafakkirlar, me'mor ustalarni voyaga yetkazgan Markaziy Osiyo o'zining me'moriy obidalari bilan insoniyat e'tiborini qozonib kelmoqda. Ushbu maqolada ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan amaliy san'at turlari orqali yurtimizni butun dunyo e'tirof etib kelayotgani va qadimiy me'moriy obidalarimizga bitilgan naqsh namunalari hozirda ham dunyo olimlari bahsmunozaralariga sabab bo'layotgani haqida muhim ilmiy dalillar keltirilib, bu fanni o'rganishning dolzarbligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, me'moriy obidalar, naqsh, girih, usta me'mor, amaliy bezak, geometrik yechim, koshin, nusxa, chiziqlar, ganch, monumental.

**Аннотация:** Согласно письменным источникам, декоративно-прикладное искусство – одна из замечательнейших составляющих народного творчества, создававшаяся на территории Узбекистана с древнейших времен. В своем развитии оно прошло многие годы и столетия, иногда возвышалось, иногда приходило в упадок, но передача художественных традиций из поколения в поколение никогда не прекращалась. Центральная Азия, воспитавшая мусульманских ученых, мыслителей и архитекторов, привлекает внимание человечества своими памятниками архитектуры. В данной статье представлены важные научные доказательства того, что весь мир узнает нашу страну через виды прикладного искусства, дошедшие до нас от наших предков, а примеры узоров, выгравированных на наших древних памятниках архитектуры, до сих пор являются причиной дискуссий среди мировых ученых и подчеркивается актуальность изучения этой науки.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, памятники архитектуры, узор, гирих, мастер-архитектор, практичный декор, геометрическое решение, плитка, копия, линии, ганч, монументальный.

**Abstract:** According to written sources, applied decorative art is one of the most wonderful components of folk art that has been created in the territory of Uzbekistan since ancient times. It has passed many years and centuries in its development, sometimes it has risen, sometimes it has declined, but the transfer of artistic traditions from generation to generation has never stopped. Central Asia, which brought up Muslim scholars, thinkers, and architects, has been attracting the attention of mankind with its architectural monuments. This article presents important scientific evidence that the whole world is recognizing our country through the types of applied arts that have come down to us from our ancestors, and the examples of patterns engraved on our ancient architectural monuments are still the cause of debate among world scientists, and the relevance of studying this science is emphasized.

**Keywords:** Central Asia, architectural monuments, pattern, girih, master architect, practical decor, geometric solution, tile, copy, lines, ganch, monumental.

Respublikamizda yangi O'zbekistonni barpo etishda xalqning an'anaviy, badiiy qadriyatlariga bo'lgan yangicha qarash amaliy san'atning barcha turlarini tadqiq qilish hamda madaniy meros, san'atshunoslik, turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga betakror xalq amaliy san'ati namunalari, madaniy meros, obidalarimizning tarixi, ularda qo'llanilgan bezak san'atining yaratilish sirlari haqidagi keng tushunchalarni berish orqali sayyohlar oqimini ko'paytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, xalq amaliy bezak san'atining yo'qolib borayotgan turlari va amaliy bezak san'ati maktablari uslublarini, mahalliy xususiyatlarini qo'llash, amaliy san'atning unutilib borilayotgan jihatlarini saqlab qolish madaniyatimiz uchun juda muhimdir.

Zero biz bilamizki O'zbek xalq amaliy bezak san'ati qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, azaldan dunyoga mashhurdir. Amaliy bezak san'atining tarkibiy qismini tashkil etuvchi amaliy san'at turlari o'zining qadimiyligi, go'zalligi va jozibasi bilan kishilar qalbidan chuqur joy egallagan. Ramziy ma'nodagi islmiy va handasaviy naqsh elementlarining o'zaro uyg'unlashuvidan hosil bo'luvchi naqsh kompozitsiyalari amaliy san'at asarlariga chiroy bag'ishlaydi. Shu qatorda Amaliy bezak san'ati teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at turlari kabi muhim ahamiyat kasb etadi. U o'zining nomidan kelib chiqib kundalik turmushda qo'llaniladigan bezak san'ati ma'nosini anglatadi. Amaliy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish korxonalarini, o'quv-tarbiya muassasalari, sport inshootlarini bezash bilan bog'liqdir. Shuningdek, san'atning bu turi kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagi uchun ham juda ahamiyatli. Amaliy bezak san'ati turmush tarzimizda keng qo'llaniladi. Amaliy san'at buyumlari foydalanish vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o'lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar kishilarni hayratlantiradi, o'ziga jalb qiladi, ya'ni insonlarga estetik zavq bag'ishlaydi.

Hozirgi davrga kelib amaliy bezak san'ati ikki yo'nalishda rivojlanmoqda:

Birinchisi. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo'nalish o'ziga Buxorodagi zardo'zlik san'atini, Xivadagi gilamdo'zlikni, Rishtonidagi kulolchilik korxonalarini faoliyatini qamrab oladi.

Ikkinchisi. Xalq amaliy bezak san'ati. Bu yo'nalishda, asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan usta hunarmandlar faoliyatini kiritish mumkin.

Birinchi yo'nalishga doir bezakli buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ko'p nusxada tayyorlansa, alohida usta hunarmandlar faoliyatida esa amaliy san'at buyumlari soni anchayin chegaralangan bo'ladi. Bu ularning mahorati yuqori bo'lishligiga olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, pichoqchilik, kashtachilik sohalarida ham bor.

Xalq amaliy bezak san'ati har bir xalqda mavjuddir. Ular bir-biridan yuqorida qayd qilganimizdek, amaliy san'atning janrlari, foydalaniladigan buyumlarimizni tayyorlashda qo'llaniladigan material, shakl, tuzilish, rang, bezak, o'lchovlar jihatidan farq qiladi. Xalq amaliy bezak san'atining yana bir alohida xarakterli jihatlaridan biri – ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analardir. Bu xususiyat asosan har bir mintaqaning yashayotgan muhiti, tabiati, iqlim sharoitlariga asoslanadi. Chunki amaliy san'at ustasi o'z ijodiy asarini yaratayotganda, go'zallikni chevasidan ya'ni, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq, tovus tasvirlarini, shimoliy o'lkalarning ustalari bug'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni qo'llasa, shimoliy xalqlar esa yog'och va hayvon suyaklarini ko'proq qo'llaydilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asar koloritiga iqlim ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u erdagi ustalar ko'proq sovuq ranglarni, issiq iqlimli O'zbekiston ustalari esa iliq ranglarni ishlatadilar. Shunday qilib, amaliy bezak san'atida har bir xalq o'z an'analarni shakllantiradi.


Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki amaliy bezak san'ati boshqa san'at turlaridan o'zining bevosita xalq ehtiyojlariga moslanganligi bilan farqlanib, inson hayotida foydalanadigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy bezak san'atida hayotdagi mavjud narsalar (masalan, daraxtlar, gullar, qushlar, hayotiy lavhalar va h.k.) aks etadi. Lekin ular mustaqil xususiyatga ega bo'lmasdan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga xizmat qiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin – ijodkor tafakkuri mahsuli sifatida

yaratiladi va u tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, bejirim ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo‘rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Amaliy san‘at juda qadim zamonda shakllanib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlangan. O‘zbek xalqining amaliy san‘ati asarlarida ko‘proq chamandek ochilgan gulzorlar, bog‘lar aks etadi. Chunki chevrasi gulzorga aylantirish qadimdan o‘zbek xalqiga xos odat bo‘lib kelgan. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘atida yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik bilan bir qatorda, kashta, atlas, beqasam va naqshlar berilgan turli jihozlari dunyo xalqlari orasida katta shuhrat qozongan.

Xususan, badiiy naqqoshlik va girih ham xalq amaliy san‘ati asoslaridan biri bo‘lib, insoniyat kundalik turmush tarzining ajralmas qismi hamda har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati sifatida juda qadimdan ma‘lum. Insoniyat tamadduni va ilk madaniy hayoti haqida darak beruvchi g‘or va qoyatoshlardagi petrogliflarni shaksiz dastlabki badiiy san‘at asarlari sirasiga kiritish mumkin. Ma‘lumki, eng qadimgi petrogliflar tosh asri — paleolit davriga oid bo‘lib, miloddan avvalgi o‘n ming yillik atrofida chizilganligi taxmin qilinadi. Markaziy Osiyo hududidan ham ko‘plab petrogliflar topilgan bo‘lib, Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Sarmishsoy tarixiy-madaniy va tabiiy-landshaft muzey-qo‘riqxonasida besh mingdan ziyod petrogliflarning eng qadimgilari miloddan avvalgi to‘qqiz minginchi yillarga mansubdir.

Shu o‘rinda devorga rasm chizish san‘ati, ya‘ni naqqoshlikni tasviriy san‘atdan farqlash zarurdir. Naqqoshlik bino va inshootning me‘moriy yechimining bir qismi bo‘lib, aksariyat xollarda uning interyeri bilan atayin uyg‘unlashtirilib, yaxlit kompozitsiyani tashkil etadi. Sarmishsoydan keyingi davrlardagi monumental bezak san‘atiga oid ajoyib namunalar Varaxsha, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Tuproqqal‘a, Bolaliktepa va Afrosiyob saroylari va budda ibodatxonalaridan topilgan devoriy yozuv va naqshlarda o‘z aksini topgan [1,8].



Sarmishsoy, Qoraung‘ursoy, Bironsoy dalalaridagi petrogliflar. (1-rasm).

Milodiy VIII asrda Markaziy Osiyoga arablar istilosi bilan birga Islom dini kirib kelishi hamda uning talablariga bo‘ysunish oqibatida tasviriy va amaliy san‘atdan inson va jonivorlarni tasvirlash yo‘qolib, naqqoshlik rivoj topgan. Arab yozuvi o‘zlashtirilib, naqshinkor unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘lgan.

Naqsh, amaliy san‘atning asosini tashkil qiladi, ma‘nosi esa arabcha so‘zdan olingan bo‘lib – tasvir, gul kabi ma‘nolarini anglatadi. O‘simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak hisoblanadi. Turli narsalar ya‘ni ashyolar, qurol, mato, mebel, kitob kabilarda, me‘moriy inshootlarning ham ichki, ham tashqi bezaklarda qo‘llaniladi. Xususan, me‘moriy yodgorliklarda naqshning ancha mukammal, o‘ziga xos va yuksak san‘atkorlik bilan yaratilgan nusxalarini uchratish mumkin. Markaziy Osiyo me‘moriy obidalarida keng qo‘llaniladigan ushbu murakkab naqshlar girih deb nomladi. Girih — forscha, chigal, tugun degan

ma'noni beradi. Handasaviy naqsh — to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik jihatdan murakkab naqsh turidir. Shu bilan birga grih to'g'ri, egri va aralash chiziq'larga bo'ysundirilgan o'ziga xos shartlilikka ega bo'ladi. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi.

O'zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar — Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy va Rudakiyilar hissa qo'shdilar. O'sha vaqtda butun dunyoga mashhur bo'lgan YuNESKO muhofazasidagi Somoniy maqbarasi qurildi. U 1127 yili me'mor Arslon Muhammadxon boshchiligida pishirilgan oddiy g'ishtni har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. G'ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan [2,6].




Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi. (2-rasm).


Bu kabi geometrik murakkab yechimga ega bo'lgan girih naqshlarimiz nafaqat o'zbek san'ati sohasi vakillari, balki yevropalik olimlarning ham bahs munozaralariga sabab bo'lmoqda. Xususan, Fan va turmush jurnalining 2007 – yil, 3-4 sonida chop etilgan “E'tirofni besh asr kutgan ixtiro” nomli ilmiy maqolada britaniyalik fizik va matematik, matematika, umumiy nisbiylik va kvant nazariyasining turli sohalarida ishlagan; Tvisor nazariyasi muallifi Ser Rojer Penrouzning geometrik qonunlari haqidagi kashfiyoti yoritilgan. Mazkur maqolada shunday deyiladi: “«Sayns» jurnalining 2007-yilgi fevral sonida bosilgan amerikalik olimlar Piter Lu hamda Paul Steynxardtning o'rta asr islom me'morchiligi haqidagi maqolasi ilmiy shov-shuvga aylandi. Maqola mualliflarining fikricha, o'rta asr maqbara, masjid va saroylarining devorlarini bezab turuvchi koshinkor naqshlar asosida XX asrning 70-yillarida yevropalik olim Rojer Penrouz kashf etgan geometrik qonunlar yotadi. Binobarin, o'rta asr me'morlari yevropalik hamkasblaridan bir necha asrga o'zib ketishgan. Hozirgi zamon fanidagi ko'plab kashfiyotlar singari bu ixtiro ham tasodifan ro'y berdi... Gap shundaki, Garvard universitetining aspiranti Piter Lu sayyoh sifatida 2005 yilda O'zbekistonga kelgan edi. U Samarqand obidalarining devoriy naqshlariga termilib boqar ekan, uning ko'z o'ngida murakkab Penrouz geometrik shakllari namoyon bo'ldi. U o'z yurtiga qaytgach, taxminlari haqida diplom ishi rahbari Prinston universiteti professori Paul Steynxardga so'zlab berdi. Shundan so'ng o'rta asr musulmon me'morchiligi yodgorliklaridagi devoriy bezak va naqshlarning tuzilishini sinchiklab o'rganish Piter Lu taxminlarining to'g'riligini tasdiqlab, yuqorida tilga olingan ilmiy maqolaning yaratilishiga sabab bo'ldi” [3,54]. Shuningdek, ushbu maqola muallifi bu kashfiyot mamlakatimiz ilmiy va madaniy doiralarda katta qiziqish uyg'otganini va qizg'in munozaralarga olib kelganini ta'kidlaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek tarixning guvohlik berishicha O'rta Osiyo va yaqin Sharq mamlakatlari bezak san'atida girih IX-XII asrlarda ravnaq topgan. Arxeologik fanining ma'lumotlariga qaraganda O'rta Osiyo bezaklarida girih naqshini vujudga kelishi VIII asrning boshlariga borib taqaladi va Varaxsha ganch o'ymakorlik namunalari, Mug' tog'idagi topilmalar — So'g'd qal'asi buning yaqqol misolidir. Zarafshon vodiysi, Xiva (IX-XII asrlar)dagi arxeologik topilmalar, XIV-XVII o'rta asrlarga oid Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlarda masjid, maqbara va saroylarini bezashda girih keng qo'llanilgan. Aniq fanlar va qurilish ishlaridagi muvaffaqiyatlar

ushbu bezak san'atidagi mavhum geometrik shakllar uchun yo'l ochib bergan. Girih qat'iy qonuniyatga ega murakkab shakllar asosida takrorlanadi. Demak, har bir girih handasaviy (geometrik) qonuniyatlar asosida vujudga keladi. Girih o'zining murakkabligi, aniq qonuniyatga ega bo'lganligi hamda ko'rkamligi bilan boshqa naqsh turlaridan ajralib turadi.



Me'moriy obidalarda aks ettirilgan girihlar (3-rasm)



“Musulmoncha” ko'p burchaklar. O'rta asr qo'lyozmasidan olingan foto surat (4-rasm). [13,54].

Shu bilan birga Markaziy Osiyo me'morligida monumental naqshi-nigor rivojiga tabiiy-iqlimiy sharoit ta'siri kuchli bo'lgan. Qisqa muddatli qish va uzoq davom etuvchi jazirama yoz fasli mintaqa me'morchiligida uy-joyning keng va bahavo qurish zarurligiga olib kelgan. Shu sabab, uy-joy va jamoat binolarini hovli va ayvonsiz tasavvur qilish qiyin. Ba'zan, ayvon sahni mehmonxona va yotoqxonaholdidan ham kengroq bo'lgan. Aholi yilning juda ko'p qismini ushbu ayvonlarda o'tkazgan va mehmonxona qatorida ular ham bezatilgan [4,5].

XIII asrda Chingizxon bosqini mintaqadagi madaniy hayotni izdan chiqarsa-da, butunlay yo'q qilib tashlay olmagan [5,57]. Temur va temuriylar davrida san'atning barcha turi, jumladan, bezakli naqshi-nigor yuksak darajada kamol topgan [6,13].

XV asrda naqqoshlikda kundal usuli paydo bo'lib, bunda maxsus gil ustidan qizil loy bilan bo'rttirib ishlangan naqshlar ko'k bo'yoqqa bo'yilib, tilla suvi bilan yupqa qilib qoplangan va naqshlar tushirilgan. XVI–XVII asrga kelib syujetli devoriy rasmlardan deyarli voz kechilib, ular o'rniga kundal usulidagi naqsh kompozitsiyalardan foydalanilgan [4,8]. Xususan, XVI asrda Buxoroda barpo etilgan Baland masjid va Xoja Zayniddin xonaqosi, XVII asrga oid Abdulazizxon madrasalari shular sirasiga kiradi.

XVIII asrda O'zbekiston hududida shakllangan o'zbek xonliklari XIX asrga kelib siyosiy-iqtisodiy jihatdan o'nglanib olgach, madaniy hayotning barcha jabhalarida, xususan, naqqoshlikda ham umumiy rivojlanish jarayoni ro'y bergan.

XIX–XX asr boshlarida Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirliklari hududida badiiy naqqoshlik maktablari shakllanib, xalq amaliy san‘ati ustalari ushbu poytaxt shaharlarga yig‘ila boshlashgan.

XIX asrda barpo etilgan arxitektura yodgorliklarini o‘rganish natijasida ularning qariyb bir xil uslubda yaratilganiga amin bo‘lamiz. Buning asosiy sabablaridan biri o‘sha davr naqqosh ustalarining ish topish maqsadida boshqa shaharlarga borishi yoki buyurtma asosida chaqirtirilib, binolarni bezatishganidir. Ko‘pincha buxorolik, marg‘ilonlik va qo‘qonlik naqqosh ustalar Samarqand va Toshkent shaharlaridagi binolarni bezash ishlariga jalb qilingan. Bu esa naqqoshlik maktablari tajriba almashib, yanada rivojlanib, o‘ziga xos kompozitsiyalar yaratilishi, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda muhim va katta rol o‘ynagan. Ularning naqshlari o‘zaro aloqa natijasida bir-biriga o‘xshasa-da, har bir ustaning o‘ziga xos rang majmuasi, uslubi, koloriti va kompozitsiyasi jihatidan farqlari bo‘lgan [7,150].


Farg‘ona vodiysida naqqoshlik maktabi o‘ziga xos bo‘lib, naqqoshlari girih, o‘simliksimon islamiy va gulli girih naqshlarni bezaklarda keng qo‘llashgan. Naqshlari tabiatga juda yaqin, erkin, ranglar esa kontrastligi bilan farqlanib, kompozitsiyalari simmetriya qoidalariga amal qilgan. Bundan tashqari, vodiya gulbarg, g‘uncha va boshqa elementlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilib, asosan pistagul, anor, atirgul, majnuntol va bodomgul shakllaridan foydalanilgan. Chetlari bejirim hoshiyalanib, ichiga islamiy naqsh tushirilgan qizil va yashil ranglardagi turunjilarni afzal ko‘rishgan.

Toshkent naqqoshlik maktabi bezaklari nafisligi va ranglarni bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat‘iy rioya qilinishi bilan ajralib turadi. Kompozitsiyalarida geometrik va o‘simliksimon naqshlar ko‘p ishlatilishi, ko‘pincha yashil gammadan foydalanilishi bilan ajralib turadi. O‘simliksimon naqshlarda oygul paxta, bofta, uchbarg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar soddalashtirib ishlangan [8. suhbatdan].



Farg‘ona naqqoshlik maktabiga mansub naqshlar. (5 –rasm).


Xiva naqqoshlik maktabi asosan havorang hamda yashil koloritdan ko‘proq foydalanishi va butun yuza geometrik naqshlar bilan to‘ldirilishi bilan boshqa maktablardan farq qiladi. Islamiy naqshda novda, marg‘ula, shukufta, barg, no‘xatgul va oddiy gullar ko‘p qo‘llaniladi. Kompozitsiyada ko‘pincha girihlar orasida novdalar spiralsimon aylanib, murakkab shakl hosil qiladi va boshqa maktablardan naqshlarining harakatchanligi bilan farqlanadi. Aksariyat xollarda Xiva naqshlari madohil asosida tuzilib, so‘ngra mayda islamiy naqsh spiralsimon qilib ishlanadi [9,123].



Xorazm naqshlari. Q. Ro‘zimetov ijodidan. (6– rasm).

Samarqand maktabi esa naqshlar o‘ta guldorligi, ularning badiiy harakatchanligi va jonliligi bilan xarakterlanadi. Undagi islamiy naqsh va murakkab girih aniq bir ritmik sharoitda takrorlanadi. Kompozitsiyada ko‘zga o‘rnatilgan gulbuta namoyonda keng o‘rin egallashi va mayin ishlov berilishi bilan Buxoro naqqoshligiga o‘xshaydi [12, 35].

Buxoro maktabi boshqa maktablardan kompozitsiyalarining boy va murakkabligi, mukammalligi hamda jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlari girihlarning aniq hisob-kitob bilan murakkab va puxta o‘lchamda yasalishi, o‘simliksimon islamiy naqshlarning o‘ziga xos did bilan ishlanishi diqqatga sazovordir. Islamiy naqshlardan yaproq, meva, gul, barg, mug‘ja va tanoblar ritmiga alohida e‘tibor berilishi bilan farqlanadi [11.28].



Buxoro naqqoshlik maktabiga mansub naqshlar“Sitorai Moxi- Xosa” saroyi.(7-rasm).

Buxoro turar-joy me‘morchiligida naqsh san‘atini o‘rgangan olim B.O.Bo‘ronov “XIX asrning oxiri — XX asrning boshlaridagi Buxoro naqqoshligi xalq hunarmandlarining ko‘plab avlodi to‘plagan tajriba mahsulidir. Ma‘lum ma‘noda qayd qilish mumkinki, Buxoro naqqoshligi O‘zbekistonning boshqa viloyatlari qatori badiiy mukammal va usul yaxlitligi bilan xarakterlanadi. O‘zbekistonning boshqa badiiy maktablari bilan qiyoslaganda, Buxoro maktabi o‘tmish namunalariga sodiqligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, bu an‘anaviy maktab bugungi kunda ham o‘z sifatini o‘zgartirmagan jonli maktabligicha qolmoqda”, — deya ta‘riflagan [10, 90].

Toshkent naqqoshlik maktabi — naqshlari o‘zining nafisligi, ranglarning bir biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qilishi, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko‘pincha yashil gammada ishlanadi.

Miniatyurachi rassom, naqqosh Sherali Avezovni Toshkent naqqoshlik maktabiga mansub ijodiy ishlari.

(8–rasm).

Uchinchi renessans davri deb e’tirof etilayotgan bu davrda, amaliy san’atga bo‘lgan e’tiborni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, shu bilan birga bu sohada yangi tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib sohani rivojlantirish maqsadida quyidagi tavsiyalar beriladi:

- o‘tmishdagi ustalarning tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalanish;
- Amaliy san’at sohasiga oid zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish;
- unutilayotgan naqsh namunalari amaliy san’at turlarida qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, usta bobolarimiz tomonidan yaratgan garihli naqsh va koshinlar, ularning nechog‘li bilimli va zukkoligini ifoda etuvchi birgina misolidir. Zero, Markaziy Osiyo madaniyati tarixi juda qadimiy bo‘lib, o‘ziga xos amaliy san’at namunalari bilan ajralib turadi. Yuqorida nomi keltirilgan xorijiy jurnalda chop etilgan maqolaning e’tiborni qaratishimiz kerak bo‘lgan jihati shundaki, butun dunyo olimlari ota-bobolarimizning aql-u zakovatlariga tasannolar aytib, zaminimiz jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan Farg‘oniy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘beklar kabi buyuk allomalar va nomlari bizgacha etib kelmagan, lekin serqirra ijod namunalari hanuz dunyo ahlini hayratda qoldirayotgan ko‘plab buyuk va zukko insonlarni yetishtirgan yurt ekanligining yana bir bor guvohi bo‘ladilar. Necha yuz yillar muqaddam yaratilgan naqqoshlik va garih san’ati sir asrorlarini yanada chuqurroq o‘rganish, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan me’moriy obidalarni asrab avaylash, ulardagi amaliy bezak namunalari mohiyatini anglash, kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev H., Bulatov S. Ustoz va shogird odobi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. “O‘zbekiston” nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. T., 2005.
2. Bulatov S. «O‘zbek xalq amaliy san’ati», T., «Mehnat», 1991.
3. Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me’morchiligida interyer. O‘zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent. 2005.
4. Hakimov A., Nosirova Z., Nodir B. O‘zbek xalq amaliy san’ati. O‘quv qo‘llanma. LESSON PRESS nashriyoti. T., 2019.
5. Hakimov A. O‘zbekiston san’ati tarixi. “Zilol buloq” nashriyoti. T., 2022.
6. Ro‘ziyev N. Bino bezaklarida milliylik va zamonaviylikning uyg‘unligi. Bitiruv malakaviy ish. Andijon. 2015.
7. [uz.m.wikipedia.org/wiki/Amaliy\\_san'at](http://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amaliy_san'at).

